



MAKTAB PSIXOLOGI ISHIDA XULQI OG‘ISHGANLIKNI DIAGNOSTIKA QILISH VA PSIXOKORREKSIYA QILISH USULLARI

Mamatkarimova Hayotxon Miraliyevna

*Farg‘ona viloyati Oltiariq tuman MMTBga qarashli 3-sonli umumiy o‘rta ta’lim
maktabining amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktab psixologi faoliyatida xulqi og‘ishgan o‘quvchilarni aniqlash, ularning xulq-atvori va emotsional holatini tahlil qilish, shuningdek, psixokorreksion ishlarni tashkil etish metodikasi yoritilgan. Xususan, diagnostika jarayonida qo‘llaniladigan psixologik testlar, suhbat va kuzatuv metodlarining ahamiyati, ularning samaradorlik darajasi hamda individual va guruhli psixokorreksiya usullari asoslab berilgan. Tadqiqotda xulq buzilishining kelib chiqish sabablari, maktab muhitining ta’siri va psixologik yordamning pedagogik jarayonga integratsiyasi bo‘yicha takliflar ilgari suriladi. Ushbu maqola maktab psixologlari, pedagoglar va psixologiya sohasida tahsil olayotgan talabalarga amaliy ko‘mak beradi.*

Kalit so‘zlar: *maktab psixologi, xulqi og‘ishganlik, diagnostika, psixokorreksiya, psixologik testlar, kuzatuv, emotsional holat, individual yondashuv, guruhli mashg‘ulotlar, ijtimoiy moslashuv, profilaktika, o‘quvchi shaxsini rivojlantirish.*

Biz uchun muhim bo‘lgan “shaxsning og‘ishgan xulqi” tushunchasini ta’riflashga o‘tishdan oldin biz psixologik ko‘rinishlarni baholash etalonini berishimiz lozim. Ko‘pgina fanlardan ko‘rinishlarni “me’yoriy” va “anomal”ga bo‘lish qabul qilingan J.Godfruaning haqqoniy e’tirozi bo‘yicha qanday axloqni me’yoriy deb hisoblash mumkin degan savol uchun inson axloqini, shu jumladan og‘ishgan xulqni tushuntirish uchun markaziy hisoblanadi. “Normal” va “anomal” axloq tushunchasining ma’nosiga qat’iy ta’rif berish murakkab, ular orasidagi



chegara esa o'ta noaniq. Shunga qaramay ilmda, kundalik hayotda ushbu tushunchalar birgalikda foydalaniladi. Bunda normal axloq atamasi ostida qoidadagidek, og'riqli xafagarchilik bilan bog'liq bo'lmagan, shu bilan birgalikda ko'pchilik odamlar bilan xarakterli bo'lgan me'yoriy ma'qullangan axloq tushuniladi. Shunga o'xshash, nome'yoriy axloqni quyidagicha bo'lish mumkin: me'yoriy –ma'qullanmagan patologik, nostandart. “Me'yoriy” deb qat'iy mazmunda ushbu fanga ayni vaqtda qabul qilingan me'yor etaloniga muvofiq keluvchi barcha narsa hisoblanadi. Me'yorlarni olish usullarini ko'pincha mezon deb ataydilar. Eng ko'p tarqalgan va umumiy hisoblangan mezonlardan biri populyasiyada uchraydigan chastotalarni hisoblash yordamida istalgan ko'rinish uchun me'yorni aniqlashga imkon beruvchi statistik mezon hisoblanadi. Matematik statistika nuqtai nazaridan tez-tez ya'ni 50% dan kam hollarda uchraydigan hamma narsa me'yoriydir. Me'yoriy taqsimot qonuniga muvofiq ravishda 2-3 foiz odamlar “me'yoriydan” ikki tomon bo'yicha ko'pchilik muayyan biir sifat bo'yicha (intelekt) axloqning yaqqol buzilishiga har ikki tomondan 20% esa nisbatan katta bo'lmagan og'ishlarga ega. Shubhasiz axloqning aniq shakli (masalan chekish) me'yoriy qabul qilinishi mumkin, qachonki u ko'pchilik odamlarda uchrasa. Haqiqatan, Sankt-Peterburgda chekishni og'ishgan xulqqa tegishli deyish o'rinsiz bo'lardi, sababi katta yoshli aholi o'rtasida chekuvchilar chekmaydiganlarga qaraganda ehtimol ko'proqdir. Statistik mezon ifodalanish va hayot uchun xatar darajasi bo'yicha axloqning sifat miqdoriy bahosi bilan uyg'unlashadi. Masalan spirtli ichimliklarni iste'mol qilish aqlli chegaralarda me'yoriy ko'rinish deb olinadi, biroq uni suiiste'mol qilish og'ishganlikni anglatadi. Boshqa tomondan odamning o'zi yoki atrofdagilar hayoti uchun to'g'ridan to'g'ri xavf tug'diruvchi axloq uning chastotasi; ba'zan esa ifodalanganlik darajasidan qat'i nazar og'ishgan sifatida baholanadi. Axloqni og'ishgan deb klassifikatsiya qilish uchun u shaxsning umumiy yo'nalganligi bilan muvofiqlashuvi lozim. Bunda axloq nostandart vaziyatlar oqibati, krizisli vaziyat oqibati, yoki o'z-o'zini muhofazalash



oqibati bo'lmashligi lozim. Og'ishgan xulqning xususiyatlaridan biri u tibbiy me'yorlar chegarasida ko'rib chiqiladi. U garchi patologik holat bilan uyg'unlashsada, psixik kasalliklar yoki patologik holat bilan tenglashtirilmasligi lozim. Og'ishgan xulqning xususiyatlaridan biri u ijtimoiy moslashmaganlikning turlicha ko'rinishlari bilan birga boradi. Moslashmaganlik sababi holati o'z navbatida shaxsning og'ishgan xulqini mustaqil sababi bo'lishi mumkin. Og'ishgan xulqning oxirgi belgisi sifatida uning ifodalangan individual va yosh – jinsiy o'ziga xosligi bilan ta'kidlash mumkin. Og'ishgan xulqda dastavval shaxsning jamiyatda tashqi mavjudligini aks ettiradi. U “ichki” jihatdan turli tuman bo'lishi mumkin. Deviant axloqning bir xil turlari har xil odamlarda turli yoshda turlicha ko'zga tashlanadi. 5 yoshdan oldin bolaning ongida ijtimoiy me'yorlar haqidagi zaruriy tasavvurlar bo'lmaydi, o'z-o'zini nazorat qilish esa kattalar yodamida amalga oshiriladi. Barcha yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, og'ishgan (deviant) xulqqa quyidagicha ta'rif berish mumkin- bu shaxsning birmuncha muhim ijtimoiy me'yorlardan og'uvchi jamiyat yoki uning o'ziga real zarar yetkazuvchi, shuningdek uning ijtimoiy moslashmaganlik holati bilan birga boruvchi turg'un axloqi. Maktab psixologi ishida xulqi og'ishganlikni diagnostika qilish. Maktab psixologi ishida xulqi og'ishganlikni diagnostika qilish psixologni oldiga bir qancha vazifa va tamoyillarni belgilab olishi zarur bo'ladi. Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha xulqi og'ishgan bolalar tarbiya jarayonida pedagogik ta'sirlarga qarshilik ko'rsatadi, ularning xulqida biz xohlagandek tutmaslik holatlari kuzatiladi. O'smirdagi bunday salbiy holatlarni oldini olish olish maqsadida maktab amaliyotchi psixologlari tomonida qator tadbirlar amalga oshiriladi, ya'ni psixodiagnostik va psixokorreksion ishlar olib boriladi. Avvalo xulqi og'ishgan bolalar qaysi sabablarga ko'ra bunday holatga tushganligi aniqlanadi.

Sabablar quyidagilar bo'lishi mumkin:



- O‘qitish saviyasining pastligi;
- O‘quvchining sinf jamoasi bilan yaxshi aloqada bo‘lmasligi;
- O‘qituvchi tomonidan o‘quvchiga ob‘yektiv baho berilmasligi;
- O‘zlashtirish qobiliyatining sust rivojlanganligi;
- O‘qishga nisbatan salbiy munosabatning paydo bo‘ishi;
- Oilaviy muhitning bola psixikasiga ta’siri;

-Muayyan vaziyatlarda hukm va xulosa chiqarishda qiyinchilikka duch kelishi.

Atrofdagilarni qo‘llab quvvatlamasligi va beparvoligi uni qonunbuzarlikka undaydi va turli salbiy holatlarning kelib chiqishi uchun imkon yaratadi. Buning natijasida kelajak rejalarning poymol bo‘lish xavfi tug‘ilib, o‘qishdan va jamoadan yuz o‘g‘irgan o‘mir o‘z kelajagini, orzu-umidlarini maktab va tengdoshlari faoliyatiga bog‘lashdan ko‘ra, yangi “do‘stlar” bilan aloqa qilishni afzal ko‘radi va boshqa kishilardan najot izlaydi. Maktab amaliyotchi psixologi o‘smirdagi salbiy og‘ishlarni aniqlash uchun intervyu metodidan foydalanishi mumkin, ya’ni sinf rahbari, o‘quvchining o‘zi, fan o‘qituvchilari, do‘stlari, ota-onalari, sinf sardori bilan suhbat o‘tkazish.

1.Sinf rahbari bilan suhbat.

- Uydagi va maktabdagi intizomi.
- O‘zlashtirishi.
- Shu kungacha o‘qituvchi tomonidan ko‘rilgan choralar.
- Oilaviy sharoiti.

2.Xulqida o‘g‘ish sodir bo‘lgan o‘quvchi bilan suhbat.



- Maktabni tugatgach qanday rejalaring bor?
- Qaysi kasbni egallamoqchisan?
- Qaysi fanlar senga ko'proq yoqadi?
- Do'stlaring kimlar, ular haqida qanday fikrdasan?
- O'zingning xulqing va o'qishingdan qoniqasanmi?
- Hayotingdagi eng zarur va qiziqarli narsa bormi? U nima?
- Oilangda ota-onangga munosabating qanday?
- O'qiyuvchilaringga munosabating qanday?
- Kattalarga qanday munosabatdasan?
- Senga nimalar yoqmaydi?

3.Fan o'qituvchilari bilan suhbat.

4.Do'stlar bilan suhbat.

5.Ota-onalar bilan suhbat.

6.Sinf sardori bilan suhbat.

O'quvchining o'zi bilan shug'ullanayotganda vaziyatga qarab savolllar beriladi. Bolaning har bir javablari e'tibrorsiz eshitiladi. Ortiqcha muhokama qilinmaydai. Maktab psixologi yuqoridagi suhbatlar natijasini umumlashtirib, o'z xulosasini beradi va o'smirga tavsifnoma yozadi, psixokorreksion chora-tadbirlar rejasi belgilanadi. Yuqorida oilaviy sharoitning salbiy ta'sirini ham sabablar qatoriga kiritdik. Ayrim oilalarda bola uchun zaruriy imkoniyatlar emasligi sababli, bola noxush holatlar bilan yolg'iz kurash olib borish kechinmalari bilan yashaydi. O'smir dunyosida oilaviy sharoitga nisbatan paydo bo'lgan noroziligi kundan-kun



avj olib boradi va natijada bolaning ichki qo'zg'oloniga, norozilikka, oilaviy sharoitidan qoniqmaslik holatlariga olib keladi. Har bir o'quvchini o'z farzandimizdek ko'rish, uning shaxsini individual psixologik xususiyatlarini har tomonlama mukammal tahlil qilish ularga ta'lim berish va tarbiyalash samaradorligining muhim shartlaridan biridir. Tarbiyaning salbiy omillar va sharoitlari eng yoqimsiz tarzda o'sib kelayotgan shaxsning, avvalo uning axloqiy-irodaviy xususiyatlarining shakllanishiga ta'sir etadi. O'quvchining axloqiy rivojlanishi asosan uning tevarak atrofdagi kishilarga va atrofdagilarning unga bo'lgan o'zaro munosabati va o'zaro ta'sir xususiyati bilan bog'liq, o'qituvchilardan pedagogik jihatdan o'z holiga tashlab qo'yilgan tarbiyasi qiyin va giyohvandlikka moyilligi bor o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilarning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini bilishlari amaliyotchi psixologlardan esa mavjud holatlarning oldini olish va bartaraf etish samarali foydalanishlari talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmedova, N. N. (2021). *Psixologiya asoslari*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
2. Tadjibaeva, N. A. (2022). *Maktab psixologi faoliyatining zamonaviy yo'nalishlari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Karimova, Z. (2020). *Yoshlar psixologiyasi va xulq buzilishlari*. Samarqand: Zarafshon nashriyoti.
4. Xolmatova, M. M. (2021). "Xulq buzilishi bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashning psixokorreksion yo'llari." *Pedagogik mahorat jurnali*, №3, 52–56.
5. Zokirov, S. (2019). *Bolalar va o'smirlar psixologiyasi*. Toshkent: O'qituvchi.
6. Mahkamova, S. (2022). "Diagnostika metodlari orqali o'quvchilarda xulq og'ishishini aniqlash." *Psixologiya va ta'lim jurnali*, №2, 30–34.



7. Tadjibaeva, N. (2020). “Maktab psixologik xizmatida innovatsion yondashuvlar.” *Yosh psixolog jurnali*, №4, 18–21.
8. Блонский, П. П. (1998). *Психология детского возраста*. Москва: Академия.
9. Выготский, Л. С. (2021). *Психология и педагогика*. Москва: Просвещение.
10. Карвасарский, Б. Д. (2001). *Клиническая психология*. Санкт-Петербург: Питер.